

"XORAZM VOHASIDA IJTIMOY-FALSAFIY FIKRLAR TARIXI: O'RTA ASRLAR VA YANGI DAVR"



"XORAZM VOHASIDA IJTIMOIY-FALSAFIY FIKRLAR TARIXI: O'RTA ASRLAR VA YANGI DAVR"

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari

2024-yil
11-oktyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

MA’MUN UNIVERSITETI



“XORAZM VOHASIDA IJTIMOIIY- FALSAFIY FIKRLAR TARIXI: O‘RTA ASRLAR VA YANGI DAVR”

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi



Urganch – 2024

IV- SHO‘BA. MARKAZIY OSIYO ALLOMALARI ASARLARINING IJTIMOIY FALSAFIY TAHLILI

Otasheva Sh.H. MARKAZIY OSIYO ALLOMALARINING FALSAFIY QARASHLARIDA OILA PSIXOLOGIYASI MASALALARINING YORITILISHI.....	215
Isaqova Z.R. XXI ASRDA TASAVVUF: RETROSPEKTIV VA ZAMONAVIY INTERPRETATSIYA	219
Сафарова С.Д., Саматов Ч.И. ЭТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ АМИР ХУСРАВА ДЕХЛАВЫ	228
Сафарова С.Д., Наврузов И.С. ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ И ФИЛОСОФСКИЕ МЫСЛИ МУРТАЗЫ МУТАХХАРИ	231
Fozilov M.A. XORAZM JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI HAMDA YOSH XIVALIKLAR FAOLIYATI.....	234
Isomiddinov Y.Y. ABDURAUF FITRAT MA'NAVIY MEROSIDA JAMIYAT VA DAVLATCHILIK TO'G'RISIDAGI G'OYALAR TAHLILI...	237
Uzoqov B. ALISHER NAVOIY - NAQSHBANDIYA TARIQATINING YETUK NAMOYONDASI SIFATIDA	239
Eshchanov H.M. QADIMGI O'ZBEKISTONNING GEOGRAFIK O'RNI VA TABIIY JOYLASHUVI.....	243
Eshchanova N.M. ILK O'SPIRINLIK DAVRINING PSIXIK XUSUSIYATLARI	246
Fozilova S.N. QADRIYATLAR VA EKOLOGIK ONG O'ZARO ALOQADORLIGINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	248
Ro'zieva G.S. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MILLIY XAVSIZLIGINI TA'MINLASH VA MADANIYATGA DOIR DAVLAT SIYOSATINI YUKSALTIRISH BO'YICHA KONSEPTUAL ASOSLARI	250
Abdikarimov I.I., Ibragimov I.K. O'RTA ASRLARDA MATEMATIKA FANINING RIVOJLANISHI.....	255
Karimov N.I. ISLOM QADRIYATLARI VA MA'RIFATINING HOZIRGI DAVRDAGI AHAMIYATI.....	257
Ravshanbekova M.O. YANGI DAVR ILM-FAN RIVOJIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOMOTOR RIVOJLANISH MASALASI.....	259
Alijonov M.B. DAVRIY MATBUOT SAHIFALARIDA IBN SINO HAYOTI VA FAOLIYATINING YORITILISHI ("YOSH TURKISTON" JURNALI MATERIALLARI ASOSIDA).....	264
Ro'zmetova D. SHARQ VA G'ARB OLIMLARI TADQIQOTLARIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA FUQAROLIK JAMIYATI HAQIDAGI QARASHLAR TAXLILI	268

Fozilov Mirashraf Azamatovich
Buxoro Davlat universiteti, Tarix va yuridik fakulteti
Siyosatshunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Pochta: mirashraf2005@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Xorazmdagi jadidchilik harakatining vujudga kelishi, jadidlarning Xorazm diyoriga ta'siri hamda Xorazmdagi yangi usul maktablarining ochilishida qo'shagan hissasi, "Yosh xivaliklar" faoliyati

hamda Xorazm jadidlarining g'oya va maqsadlari, o'ziga xos xususiyatlari haqida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Jadid, Metod, Yosh xivaliklar, Dunyoviy bilimlar, Mafkura, Kapital, Zamonaviy ta'lim, Ziyolilar.

Jadidchilik harakati XIX-asr oxiri XX-asr boshlariga kelib butun O'rta osiyo bo'ylab aktual harakatga aylandi. "Jadid" so'zi arabcha yangi yoki yangi metod degan ma'nolarni anglatadi. Shu jumladan jadidchilik harakati namoyondalari o'z davrining eng ilg'or taraqqiyparvar kuchlari va ziyolilar qatlamini tashkil etgan. Jadidchilik harakati o'z navbatida butun musulmon o'lkalarida, jumladan O'rta osiyoda yangi ta'lim tizimini isloh qilish, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'daniy-ma'rifiy islohotlarni joriy etishni maqsad qilgan. Bu harakat ayniqsa Turkiston o'lkasida keng quloch yoyib kirib keldi va shu bilan bir qatorda jadidchilik harakatining namoyondalari paydo bo'la boshladi. Jadidchilik harakati namoyondalari eng avvalo Turkiston ahlini va yoshlarni savodxonligini oshirish yo'lida say-harakatlar olib borishgan. Mahalliy aholini zamon ruhiga mos ravishda tarbiyalashni ko'z oldilariga maqsad qilib qo'yishgan. XX-asr boshlariga kelib Turkiston o'lkasining Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Fargo'na vodiysi hududlarida o'nlab yangi usuldagi jadid maktablari ochila boshladi. Jadidlar yangi usul maktablarida yoshlarni bilimli, saviyali va ma'rifatli qilib tarbiyalab, yosh avlodni Turkistonda davlat asoslarini yaratish uchun milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surib, da'vat etib kelishgan. Shu jihatdan jadidchilik harakati butun Turkiston bo'ylab tarqala boshladi. Xo'sh jadidchilik harakati aynan Xorazm diyorida qay tarzda vujudga keldi?, keling bu vaziyatni Xorazm misolida ko'rib chiqsak.

Jadidchilik harakati Xorazmda XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida vujudga keldi. Xiva xonligida jadidchilik harakati aynan ko'plab g'arb hamda rus an'analariining kirib kelishi va rivojlanishi ularni chuqur islohotlar o'tkazishga undadi. Shu sababli Xiva jadidlari xonlikda yangi islohotlar o'tkazish borasida izlanishlar olib bordilar. Shu o'rinda 1904-yilda "Jamiyati xayriya" moddiy fondini tuzdilar. Bu jamiyat yangi usuldagi maktablarni ochilishida homiylik qildi¹⁵⁸. Xiva jadidlari ma'rifiy ishlar bilan kifoyalanib qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ishi bilan ham shug'ullandilar. Xiva xonligida jadidchilik harakati katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib, 1914-yil avgustgan boshlab u "Yosh xivaliklar" inqilobiy harakati nomini oladi¹⁵⁹. "Yosh xivaliklar" siyosiy harakatining faoliyatini yo'lga qo'yishda Otajon Safayev, Bobojon Yoqubov, Hakimboy Jonmuhammedov, Muhammadyor Xoji Abdullayev, Xudaybergan Devanov, Otajon Xo'ja Niyazov, Rahmonbergan Yoqubov, Muhiddin Umarov, Husaynbek Matmuradov, Mulla Jumaniyoz Sultonmuradov, Nazir Sholikarovlar va boshqalarning xizmati katta bo'lgan¹⁶⁰. Partiya o'zining e'lon qilgan dasturida xon hokimiyatini cheklaydigan islohotlar o'tkazish, Xiva xonligida konstitutsiyaviy monarxiyani o'rnatish, xalqni ilm-ma'rifatli qilib tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib mo'ljallagan. "Yosh

¹⁵⁸ М Матниёзов. "Хоразм тарихи" I-жилд. Урганч. "Хоразм" 1997. 374-бет.

¹⁵⁹ М Матниёзов. "Хоразм тарихи" I-жилд. Урганч. "Хоразм" 1997. 374-бет.

xivaliklar” ijtimoiy-siyosiy harakatining rahbarlarining deyarli barchasi Xiva xonligida sotsial-iqtisodiy ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlar qilishning ob’ektiv zarurligini tushunib yetgan bilimli, ongli kishilar edilar¹⁶¹. Partiya a’zolari shu yo’l orqali davlatda yangi islohot qilishni ko’zlashgandi. Shu jumladan, bu islohotlar ravnaqi davlatning ma’daniy-ma’rifiy, ta’lim, davlat siyosati xususan yoshlar ongiga ijobiy ta’sir ko’rsatdi. Xorazm jadidlarining Ta’lim sohasidagi islohotlariga nazar tashlasak, ayniqsa yangi usuldagi maktablarni tashkil etdilar. Shu bilan bir qatorda yangi ta’lim tizimini qo’lladilar, bunga misol sifatida zamonaviy ta’lim tizimini joriy qilish, an’anaviy madrasalardan farqli o’laroq diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlar rivojiga ulkan hissalarini ko’rish mumkin. Yosh xivaliklar o’zbek tilini rivojlantirish orqali o’zbek adabiyotini yaratishga alohida e’tibor qaratdilar. Ularning mafkuralarini keng yoyishda matbuot faoliyati asosiy rol ni o’ynagan. Yosh xivaliklar o’z faoliyatlari davomida matbuotdan foydalanar ekanlar bu narsa ularga ijtimoiy-siyosiy go’yalarini kengroq targ’ib qilishga muvofiq ravishda xizmat qildi. Yosh xivaliklar nafaqat ta’lim-tarbiya ijtimoiy-siyosiy sohalarda ham faol bo’lganlar. Ularning ijtimoiy-siyosiy sohalardagi sa’y-harakatlari Xiva shahrining ijtimoiy-siyosiy hayotiga o’z ta’sirini ham ko’rsatgan. Jumladan yosh xivaliklar mahalliy jamoat ishlari hamda xayriya tadbirlarida faol ishtirok etganlar. Ular mahalliy muammolarni hal qilish va jamiyatning rivojlanishi uchun ijtimoiy tashabbuslarni amalga oshirishda yordam berganlar. XX asr boshlarida rivojlangan xiva jadidchilik harakati boshqa xonliklardan farqli o’laroq o’zgacha sharoitda yuzaga keldi, xiva jadidchilik harakati ikkita oqimdan iborat edi, ya’ni o’ng va so’l oqimdan iborat edi. Uning o’ng oqimi o’lkada rivoj topib kelayotgan savdo sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o’ziga bo’ysundirgan edi. Bu oqimga xonning bosh vaziri Islom Xo’ja boshchilik qilardi. Jadidchilik harakatining o’ng oqim vakillari o’z oldilariga xiva xoni hokimiyatini cheklamagan holda, bir necha islohotlar o’tkazishni maqsad qilishdi. Bu islohotlar ichida eng muhimlaridan biri iqtisodiy hamda kapital munosabatlarni rivojlantirish edi.

Xiva jadidchilik harakatining so’l oqimi tarkibida hunarmand, dehqon va o’rta ziyoli tabaqa vakillarini birlashtirgan edi. Ushbu so’l oqim rahbari Boboaxon Salimov edi, unga ergashgan Jumaniyoz Sultonmurodov, Mulla Bekjon Rahmonov, Xudoybergan Devonov, Xusaynbek Matmurodov va boshqalar so’l oqim a’zolari edilar. Xiva jadidlarining so’l oqim vakillari Xivadagi yangi usul maktablarida o’z mafkura hamda g’oyalarini keng yoyishdi. Ular bu g’oya va maqsadlar bilan Xivada ijtimoiy qatlamning siyosiy ongini oshirishni ko’zlashgandi. Xiva jadidlari yangi usul maktablarida ma’daniy hamda ma’rifiy dunyoqarashni kengaytirish maqsadida diniy va dunyoviy fanlarni qo’shib o’qitishga asoslangan dasturni joriy etishdi.

Xiva jadidchilik harakati o’zining yutuqlari bilan ta’riximizda chuqur iz qoldirdi. Xiva ma’naviy, ma’daniy, ta’rixiy ahamiyati bilan XIX-asrda jadidchilik harakatining markazlaridan biri edi. Xiva ta’rixida muhim o’rin tutgan jadidchilik harakati o’zining keng islohotlari orqali kerakli hamda aniq ma’daniy, ilmiy

¹⁶¹ М Матниёзов. “Хоразм тарихи” I-жилд. Урганч. “Хоразм” 1997. 375-бет.

o'zgarishlarda ulkan hissa qo'shdilar. Yosh xivaliklar ta'lim tizimiga o'zbek tilini va o'zbek adabiyotini rivojlantirish orqali xalqni yangicha fikrlash va dunyoqarashlarini ijobiy tomonga o'zgarishi uchun harakat qildilar. Xivada ochilgan yangi usul maktablarida nafaqat diniy va dunyoviy ko'nikmalar bilan ham ta'minlash asoslarini yaratdilar. Ularning turli sohalarda yozilgan asarlari va undagi g'oyalar xalqni ma'rifat tomon yetakladi. Bu muhim bosqichda jadidlar xalqni savodxonlik darajasini oshirish yo'lida namuna sifatida xizmat qildilar. Jadidlar xalqni ilm-ma'rifatli qilib tarbiyalash hamda xalqning kelajagi yo'lida jonkuyar haqiqiy vatan fido'ylari edilar. Hozirgi kunda zamonaviy davlat asoslarini yaratishda ham jadidlar ilmiy me'rosining o'rni beqiyosdir.

“Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir”.

Sh.Mirziyoyev

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M Matniyozov. “Xorazm tarixi” I-jild. Urganch. “Xorazm” 1997. 336-bet va 374-375-betlar.
2. M Matniyozov. “Xorazm tarixi” II-jild. Urganch. “Xorazm” 1997.